

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
FARG‘ONA FILIALI**

**“Harakatli o‘yinlarni o‘qitish uslubiyati”
moduli**

1-MAVZU:

Harakatli o‘yinlarning tarixi, turkumlanishi

dotsent Qambarov Orzubek Faxriddinovich

Reja:

- 1. Harakatli o‘yinlarning kelib chiqish tarixi.**
- 2. Harakatli o‘yinlarni turkumlash, davrlari.**

Tarix manbalaridan ma'lumki. Bundan uch-to'rt ming yillar muqaddam hozirgi Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari xududlarida yashagan otabobolarimiz xarbiy-sport o'yinlari (yugurish, kamondan o'q otish, kurash) bilan jiddiy shug'ullanganlar. Ularning botirliklari, ham piyoda, xam otda yurib ko'rsatgan qaxramonliklari yetti iqlimga yoyilgan. Bu an'ana ajdoddan avlodga o'tib, keyinchalik temuriylar, boburiylar davrlarida ham davom etgan. Xususan, sohibqiron bobomiz Amir Temur bolaligidan chuqur bilim egallash bilan birga jismoniy mashqlar bilan jiddiy shug'ullanib, o'z zamonasining eng kuchli va barkamol kishisi bo'lib yetishdi.



Har bir xalq o'tmish avlodlaridan qolgan madaniy merosiga ega bo'lib, uning madaniy boyliklari xazinasiga xalq o'yinlari ham kiradi.

Xalq o'yinlari o'zining vujudga kelishi va rivojlanishiga ko'ra g'ayrioddiy hodisa emas, balki xalqning hayotini obrazli, muayyan aks ettiradigan va jamiyat taraqqiyoti qonunlariga hamohang belgilanadigan faoliyatdir.



Ma'lumki, mehnat hamda faoliyatning boshqa turlari shu jumladan o'yin ham ijtimoiy xarakterga ega.

O'yinlar kishilarning mehnat madaniyati paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiga aylangan tarixiy bosqichda vujudga kelgan.

Har bir tarixiy davr olamni badiiy o'zlashtirish uchun o'z hissasini qo'shadi yani san'at ijtimoiy hayotning ko'p qirrali hodisalarini to'laroq va yorqinroq aks ettirishga intilib, fan, madaniyat, siyosat, axloq va iqtisodiyotning yutuqlarini muayyan tarzda umumlashtiradi.

O'yinlar xalq tomonidan yaratilgan va kishilarning kundalik hayotidagi voqealar hamda hodisalarni obrazli aks ettirib, ularning hayotiy taassurotlarini, kuzatishlarini, tajriba va hissiyotlarini gavdalantirib, o'zida so'z, musiqa, raqs shakllarini mujassamlashtirgan.

O'zbek xalq o'yinlari o'z tabiatiga ko'ra amaliydir. Ularda xalq badiiy madaniyatining o'ziga xosligi, uning milliy xususiyatlari yaqqol ko'rinadi.

Mazkur o'yinlarning milliy xarakteri zamirida xalqning madaniy boyligi, katta merosi yotadi. Folklor, ayniqsa, uning doston va tarixiy rivoyatlar kabi janrlari manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Ko'p o'yinlar mazmunining mavzulari qabilalarning urf-odatlarini, qadimiy udumlarni, mehnat faoliyati yoki madaniyatini yoritish mumkin. Xalqning unutilayozgan iltijolari, baytlari va sanoqlari bolalarning xalq o'yinlaridagina davom etib keladi. Guruh bo'lib o'ynaladigan o'zbek xalq o'yinlari va ayrim sport o'yinlari qadimiy qabilalarning o'yinlariga borib taqaladi.

Harakatli o'yinlarni quyidagicha turkumlash mumkin:

Jixozlar bilan o'ynaladigan o'yinlar.

Jixozlarsiz o'ynaladigan o'yinlar.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Drammalashgan o'yinlar.

Mazmunli-rolli o'yinlar.

Ijodiy o'yinlar.

Drammalashgan o'yinlar

Tarixiy-hayotiy,
madaniy-hayotiy,
kasbkorlik-hayotiy.

Kulgili o'yinlar.

Qo'shiq va raqs
o'yinlari.

Mazmunli-rolli o'yinlar

Mazmunli-harakatli
o'yinlari.

Sport o'yinlari.

Ijodiy o'yinlar.

Dramalashgan o‘yinlar ko‘pincha musiqa jo‘rligida va qahramonlarning raqslari bilan o‘tkaziladi. Bolalar katta yoshli kishilarning hayotini, mehnat faoliyatini, tabiat hodisalarini kuzatib hamda xalq tomoshalarida qatnashib, o‘zlari ko‘rgan narsalarni o‘yinlarida tasvirlaganlar.



Hayotni tasodifiy ravishda aks ettirish mazmunli-rolli, mazmunli-harakatli va sport o‘yinlariga asos bo‘lgan.



Dramalashgan o‘yinlarga o‘zbek xalq ertaklari va afsonalari asos qilib olingan. Mana shunday o‘yinlarning maqsadi ertaklar va afsonalarni ijro etishdir. Dramalashgan o‘yinlar o‘z mazmuniga ko‘ra juda yorqin bo‘ladi.



Ularda ishtirok etuvchilar esa Hayvon yoki Qush bo‘lsin, Odam bo‘lsin, badiiy obrazning barcha xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan shaxslardir.



Bunda hayvonot olami insoniy xususiyatlarga ham ega bo‘ladi.

Ijodiy
o'yinlarga
quyidagilar
kiradi

Bolalarning o'zlari o'zbek xalq ertaklari va afsonalari asosida yaratadigan o'yinlar.

Estetik maqsadga qaratilgan ixtiyoriy va mavzuli o'yinlar.

Maqsadga muvofiq o'yinlar, o'quvchilarning o'zlari yaratadigan boshlanishi va oxiri har xil o'yinlar, natijasi ma'lum bo'lgan o'yinlar.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtiradigan she'r to'qish, qo'shiq, raqs, imo-ishoralar, taqlid qilish, bajariladigan o'yinlar.

Tasviriy ijodkorlikka, o'yinlar uchun kerakli narsalarni bajarishga doir o'yinlar.

Harakatli o‘yinlarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarning yoshini hisobga olgan xolda tanlanishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar to‘rt guruhga bo‘linadi.

1-guruh. O‘yin faoliyati juda ham turli-tumandir: o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan bolalar o‘yinlari, stol o‘yini, doira bo‘lib o‘ynaladigan o‘yin, harakatli o‘yinlar, sport o‘yinlari.

2-guruh. O‘yin o‘zi-o‘zini bilish vositasi, o‘yin-kulgi, dam olish, jismoniy va umumiy ijtimoiy tarbiya vositasi, sport vositasi bo‘lishi mumkin.

3-guruh. O‘yin madaniyati elementi sifatida jamiyatni barcha madaniyati va kishilarning har hil ehtiyojlari bilan rivojlanadi: o‘yin-kulgi, dam olishda, ma’naviy, aqliy va jismoniy kuchni rivojlanishida katta o‘rin egallaydi.

4-guruh. O‘yin faoliyati - nafaqat madaniyatni bir elementi hisoblanadi, balki u bolalar va o‘smirlarni tarbiyalashda ham foydali vosita hisoblanadi. U har doim maqsadga yo‘naltirilgan va turli-tuman maqsadli yo‘l-yo‘riq hamda asoslangan harakat bilan o‘ziga xos xususiyatni ko‘rsatib turadi.

Sport o‘yinlari

Sport o‘yinlari harakatli o‘yini eng yuqori bosqichidir. Bunda o‘yin qoidasi qa’riy belgilangan bo‘lib, ular maxsus maydonga va jixozlarni talab qilinadi. Sport o‘yini uchun o‘ziga xosligi o‘yin jarayonida ma’lum taktikada o‘zini tutishi va murakkab harakat texnikasi hisoblanadi. Bu esa o‘yin qatnachilaridan maxsus tayyorgarlikni, trenirovkani talab qiladi. Har bir sport o‘yini belgilangan o‘yinchilarni soniga, ma’lum maydoncha, asbob – anjomlari hisoblanadi.



**E'TIBORINGIZ
UCHUN
RAHMAT!**
